



INSONIYAT TARAQQIYOTINING UCH BOSQICHI TOFFLER
NIGOHIDA: AGRAR SIVILIZATSIYADAN AXBOROT
INQILOBIGACHA...

*Muallif: Pardayev Shahbozbek Otabek o'g'li Jahon iqtisodiyoti va
Diplomatiya Universiteti, Xalqaro munosabatlar fakultetegi 1-kurs talabasi.*

Email: shaxbozbekpardayev029@gmail.com

Telefon: +998-77-718-21-05

Annotatsiya: Ushbu maqolada Elvin Tofflerning "Uchinchi to'lqin" konsepsiyasi doirasida insoniyat sivilizatsiyasining bosqichma-bosqich rivojlanishi tahlil qilinadi. Muallif agrar jamiyatdan sanoat inqilobiga va undan keyingi zamonaviy axborot texnologiyalari davriga o'tish jarayonlarini ko'rib chiqadi. Maqolada har bir "to'lqin"ning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'siri va kelajak istiqbollari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Elvin Toffler, Uchinchi to'lqin, agrar sivilizatsiya, sanoat inqilobi, axborot jamiyati, taraqqiyot bosqichlari, texnologik transformatsiya, ijtimoiy evolyutsiya.

Аннотация: В данной статье анализируется поэтапное развитие человеческой цивилизации в рамках концепции Элвина Тоффлера «Третья волна». Автор рассматривает процессы перехода от аграрного общества к промышленной революции и последующей эре современных информационных технологий. В статье освещается влияние каждой «волны» на социально-экономическую жизнь и перспективы будущего.

Ключевые слова: Элвин Тоффлер, Третья волна, аграрная цивилизация, промышленная революция, информационное общество, этапы развития, технологическая трансформация, социальная эволюция.

Abstract: This article analyzes the gradual development of human civilization within the framework of Alvin Toffler's "The Third Wave" concept. The author examines the transition processes from an agrarian society to the Industrial



Revolution and the subsequent era of modern information technology. The article highlights the impact of each "wave" on socio-economic life and future prospects.

Keywords: *Alvin Toffler, The Third Wave, agrarian civilization, industrial revolution, information society, stages of development, technological transformation, social evolution.*


Hech kimga sir emaski, o'tgan asr mobaynida ro'y bergan siyosiy, iqtisodiy va harbiy voqea-hodisalar, ayniqsa, ikkinchi jahon urushi hamda uning oqibatlari insoniyat tarixida qora xotiralar bo'lib qolish bilan bir qatorda global hamjamiyat hayotida va sivilizatsiyalar taraqqiyotida yangi sahifa ochilishiga poydevor bo'ldi. Misli ko'rilmagan darajada shiddat bilan o'zgarib kelayotgan mazkur davr mohiyati va undan avvlagi tamaddunlar ahamiyati haqida so'z borar ekan XX asr mutafakkiri va amerikalik futurolog olim Alvin Tofflarning falsafiy qarashlari alohida e'tiborga molik. Uning 1980-yillarda nashr qilingan "Uchinchi to'lqin" asari zamonaviy sivilizatsiyaning evalutsiyasi, bugungi ko'rinishi va yaqin kelajakdagi taraqqiyoti borasida qimmatli ma'lumotlar berilgan eng muhim nazariy konsepsiya deb aytsam mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu kitobda olim odam yaratilgan buyon to hozirgi kungacha bo'lgan davrni uchta katta to'lqinga ajratib tahlil qilgan. Xususan, bu uch to'lqin quyidagilardir: agrar, sanoat va axborot jamiyatlari.

Yuqoridagi uch tamaddunning har biri o'ziga xos jihatlarga ega bo'lsa-da, ular mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog'liq. Zero, futurolog Tofflarning shaxsan ta'kidlab o'tganidek, "ulardan biri boshqasini tamoman rad eta olmaydi yoki biri boshqasidan mutlaq mustaqil bo'la olmaydi". Masalan, hali odamlar ibtidoiy jamoa turmush tarzida hayot kechirgan kezlardanoq jamiyat hayotida inqilobiy hodisa hisoblangan agrar sivilizatsiya qishloq xo'jaligi asosiga qurilgan, biroq XVIII-XIX asrlarda sanoat taraqqiy etgan zamonda, qolaversa, bugun ham qishloq xo'jaligi o'z ahamiyatini butunlay yo'qotmagan. Xuddi shu kabi industrial sivilizatsiyaning vositalaridan bevosita yoki bilvosita hatto kundalik yumushlarimizda foydalanamiz. Kitobni o'qish jarayonida men, jamiyatning asosiy boyligini yer va mehnatda ko'ruvchi agrar jamiyat va standartlashgan hayot tarzini taklif etuvchi, milliy va markazlashgan davlat boshqaruvi hamda ilk texnologik kashfiyotlari



bilan mashhur industrial sivilizatsiya taraqqiyoti va ularda kechgan siyosiy-iqtisodiy, ayni paytda geografik va harbiy jarayonlar(ommaviy ta'lim, urbanizatsiya, zavod-fabrika tizimi)ga qaramasdan diqqatimni kuch va qudratni bilim, innovatsiyalar va axborot uchburchagida talqin qilgan “uchinchi to'lqin” - axborot sivilizatsiyasiga qaratdim. Negaki, gap faqat bu davrning keng imkoniyatlarida emas, balki modern xavf-xatarlarda, insoniyat oldida turgan yangi global muammolarda hamdir.

To'g'ri, bugun biz yangi siyosiy model, yangi iqtisodiy teoreyalar, yangi dunyo tizimi shakllanayotgan postindustrial davrda yashayapmiz. Aynan axborot sivilizatsiyasi ham shu davr mahsuli bo'lib, ushbu tamaddunda ilmiy-texnologik ixtirolar: kompyuterlar va GPS qurilmalarining paydo bo'lishi, ARPANET va keyinchalik INTERNETning yaratilishi orqali xalqaro maydonda axborot-kommunikatsiya jarayonining keskin tezlashuvi, meditsina sohasidagi DNK tadqiqotlaridan tortib iqtisodiyotdagi kriptavalyutalargacha bo'lgan yangiliklar va hatto sun'iy intellektning kashf etilishi kabi murakkab jarayonlar har bir shaxs hayotida katta inqilobiy burilish yasadi. Mazkur tamaddunning eng muhim xususiyatlaridan biri markazlashuvning yo'qolishi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda desentralizatsiyalashgan strukturalar, moslashuvchan muhit shakllanishidir. Bu haqida Alvin Toffer shunday degan edi: “...kelajakdagi jamiyat mahsulotni ommaviy emas, balki individual va moslashuvchan tarzda ishlab chiqarishga o'tadi”.¹ Bugun yon-atrofimizda ilgari surilayotgan yoxud sodir bo'layotgan masofaviy ishlash, raqamli xizmatlar, innovatsion startaplar, ilmiy(o'quv) markazlar va intellektual klublar ham shular jumlasidan.





1 Alvin Toffler. “Uchinchi to’lqin”

Axborot-texnologiyalarining yana bir ahamiyatli jihati bu, tabiiyki, ta’lim tizimi bilan bog’liq. Sababi, nafaqat yoshlar, balki butun insoniyat bugun har tomonlama axborot bilan to’qnash kelmoqda. Bejiz asrimiz boshidanoq “www”(butun dunyo o’rgimchak to’ri) termini paydo bo’lgan emas, har daqiqada ijtimoiy tarmoqlar orqali oqib kelayotgan millionlab xabarlar insonlar ongini chulg’ab olmoqda. Bu bilan “axborot xuruji” insonlarning ilmiy va ma’naviy himoyaga muhtoj ekanligini yaqqol namoyon qilib qo’ydi. Alvin Toffler bu borada davlatning ta’lim tizimi ham zamonga moslashishi kerakligini tavsiya berib, axborotdan oqilona foydalanish mumkinligini qayd etgan. Shuningdek, u agar ta’lim tizimi axborot sivilizatsiya bilan murosaga kelmasa XXI asr savodsizlari o’qishni bilmaydiganlar emas, balki o’rganishni, unutishni va qayta o’qishni bilmaydiganlardan iborat bo’lishini, axborot va bilim yaqin kelajakda insoniyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanishini aytgan. Men e’tibor qaratmoqchi bo’layotgan “tanganing boshqa tomoni” ham aslida shu. Endilikda bilim hayotimizning har bir jabhasida avvaligidan ham muhimroq rol o’ynaydi, masalan, iqtisodiyotning asosiy kapitali avval pul va mulk ko’rinishida bo’lgan bo’lsa, yaqin kelajakda mutlaq bilim bo’ladi. Bilimsizlik esa jamiyat taraqqiyotini sekinlashtiruvchi sabab yoki “og’ir illat” bo’libgina qolmay, postindustrial tamaddun davrida yangi jinoyatlarga yo’l ochib berishi, virtual qora kuchlar uchun qulay zamin hozirlashi mumkin. Zero, elektron kommunikatsiya dunyoni global qishloqqa aylantirayotgan bir paytda, axborot asrining imkoniyatlarini rad etmaganimiz kabi undan hosil bo’ladigan xavf-xatarlarni ham hech kim inkor eta olmaydi². Xususan, bugun ko’pchiligimiz guvohi bo’layotgan kiberjinoyatlar, texnologiyaga haddan tashqari qaramlik va ayniqsa, axborot manipulatsiyasi ham aynan bilimsizlik yoxud zamon falsafasini tushunmaslikning “mevasi”dir.

Futurolog A. Toffler axborot manipulatsiyasi haqida gapirar ekan, bejiz “katta og’a seni kuzatmoqda”³ atamasini keltirib o’tmagan. Bu signal termin orqali anglashimiz mumkinki, axborot sivilizatsiyasi davrining gultoji hisoblangan informatsiya to’lqini ikki xil tabiatga ega ekan. Xuddi shu axborot tizimi ochiq va



shaffoflikni ta'minlash bilan bir qatorda jamiyat hayotiga ko'rinmas zanjir bo'lishi ham mumkin. Ayni shu masala haqida yozar ekanman, "yovuz daho" I.V.Stalinning "...dunyoda yadroviy bombalardan ham qudratli xavf - OAV. Bu eng xavfli qurol!" - degan e'tirofi beixtiyor yodimga tushdi. Haqiqatdan ham, axborot tizimi, bugun, ijtimoiy hodisalardan tortib, insonning shaxsiy hayotiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Jumladan, asrlar davomida shakllangan "oila" sistemasi. Bu jarayonlarning barchasini qisqa qilib, muallif XXI asr demokratiyasi mahsuli deb ataydi.



Xo'sh, ushbu axborot tamaddunida inson hayoti, millatlar va davlatlar taqdiri, kelajagi qanday ko'rinishda bo'ladi?

2 Faylasuf Marshall McLuhan

3 "1984". Jorj Oruell

Mazkur savolga javob tariqasida Alvin Tofflerning "Uchinchi to'lqin" kitobi o'z tavsiyasini bergan, shuningdek, ehtimoliy jarayonlarni keltirib o'tgan. Xususan, modern - postindustrial dunyoda innovatsion g'oyalar, qisqa va uzoq muddatli strategik qarorlar, oqilona iqtisodiy-ijtimoiy siyosat, ilmiy yutuqlar, zamonaviy texnologiyalar va virtual imkoniyatlardan foydalanib taraqqiy etish mumkinligi yagona xavfsiz yo'l sifatida aytiladi. Futurolog olimning bashoratlari haqida fikr bildirar ekan siyosatshunos Zbignev Bzejnskiy o'z vaqtida "yangi tarixiy jarayon - texnotron davrida hokimiyat tobora "axborot kapitali" va uning nazorati tomon



siljisa-da, dunyoda asta-sekinlik bilan globalizatsiya shakllanishiga olib keladi. Bu uchinchi to'liqning afzal jihatlaridan biri bo'lib xizmat qiladiki, endi insoniyat hayotiga taalluqli muammolar yolg'iz bir davlatga tegishli yoki bir nechta tashkilot zimmasida bo'lmay, balki global hamjamiyat e'tiboridagi masalaga aylanadi". Darhaqiqat, hozirgi kunda ekologik muammolar va ularning oldini olish, qolaversa terrorizm-ekstremizm kabi illatlarga qarshi kurashish, sog'liqni saqlash, xalqaro savdo va valyuta kabi dolzarb mavzular hukumatlararo missiya va umuminsoniy vazifalarga aylanmoqda. Yuqorida sanalgan qator muammolar qarshisida bilashsak o'zamiz, birlashmamsak to'zamiz desam, to'g'ri tarif bergan bo'laman. Fikrimcha, bugun, uchinchi to'liq - axborot sivilizatsiyasi davrida O'zbekiston ham jahonda ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faollik ko'rsatmoqda. Ommaviy axborot vositalariga nisbatan ochiqlik, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy islohotlar, pragmatik va ko'p vektorli tashqi siyosat, innovatsion texnologiyalar, shuningdek, sport va ilm-fan sohasidagi yutuqlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Muhataram Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda bugungi globalizatsiya davrida "Yangi O'zbekistonni barpo etish - bu eng avvalo, yangicha tafakkur, intellektual salohiyat, bilim va zamonaviy texnologiyalarga tayanadigan jamiyatni qurish demakdir!"⁴

So'ngso'z o'rnida shuni aytishim joizki, tarixan har bir davr, har bir sivilizatsiya insoniyat oldiga o'ziga xos vazifalar qo'yadi, mas'uliyat va

⁴ Yangi O'zbekiton Strategiyasi. Mirziyoyev, Sh.M majburiyatlal yuklaydi. Asr mutafakkirlaridan biri Alvin Toffler nazarda tutgan "uchinchi to'liq" ham yangi tamaddunda jamiyat taraqqiyotini belgilovchi omillar: axborot, innovatsion texnologiyalar va ilm-fanni ustivor yo'nalishlar sifatida belgilab bermoqda. Mazkur kitobda axborot jamiyatiga nisbatan faqat ijobiy sifatlar emas, balki yaqin kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan global xavf-xatarlar aytilgani, ayni paytda ogohlantirish berilgani alohida tahsinga loyiq. Kitobning yana bir afzallik jihati shundaki, muallif ko'rsatayotgan sahna va manzara kishiga endilikda tarqqiyot kaliti moddiy boyliklarda emas, balki intellektual salohiyat, bili, axborot va o'zgarishlarni to'g'ri baholay olish va ulardan to'g'ri foydalana olishda ekanligini real voqeliklar asosida tushuntiradi. Shaxsan men futurolog olim tomonidan aniq bayon etilgan



qimmatli nazariyalarni nodir manba o'laroq bilaman. Negaki, bugun haqiqatdan ham u ta'kidlaganidek insoniyat turgan chorraha yo'llari mohiyatan ikkiga ayrilgan, ulardan qay birini tanlash, qanday kelajakni qurish har bir inson, har bir millat va har bir mamlakatning o'z ixtiyorida... Zero, tarix kashf etgan eng muhim haqiqat shuki, kelajak unga jismonan va ruhan tayyor bo'lganlar, o'zgarishlarni qo'rqmasdan qarshi oladigan millatlar tomonidan bunyod etiladi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toffler, A. (1980). *The Third Wave*. William Morrow and Company.
2. Castells, M. (2010). *The Rise of the Network Society* (2nd ed.).
3. Schwab, K. (2016). *The Fourth Industrial Revolution*. World Economic Forum.
4. Karimov, I., & tahrir hay'ati. (2020). *Axborotlashgan jamiyat sari: O'zbekiston tajribasi va rivojlanish tendensiyalari*.